

## O'ZBEKISTON-AQSH HAMKORLIK ALOQALARINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA YORITILISHI

**Saydullayeva Xadicha Abdunarzullayevna**

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat  
pedagogika universiteti doktaranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O'zbekiston-AQSh davlatlari o'rtasidagi so'nggi yillardagi ko'p tomonlama manfaatli hamkorlik aloqalarining ommaviy axborot vositalaridagi muhokamasi yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *diplomiya, tashqi siyosat, xalqaro hamkorlik, elchi, mintaqaviy hamkorlik, xalqaro tashkilot.*

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgach, suveren mamalakat sifatida jahon hamjamiyatida munosib o'rinnegi egallash maqsadida faol tashqi siyosat olib bordi. Murakkab, globallashuv jarayonida o'z pozitsiyasi orqali diplomatik siyosat yuritib xalqaro munosabatlarga integratsiyalasha boshladi. Shu tariqa davlatning tashqi siyosat tamoyillari, strategiyasi va ustuvor yo'nalishlari shakllandi.

Mustaqillikning dastlabki sanalarida, chet davlatlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirish bilan bog'liq ko'plab yutuqlarga erishish bilan bir qatorda muammolarga ham duch kelindi. Bugungi taraqqiyat parvar islohotlar zamonda ushbu muammolar ham o'z yechimini topmoqda.

O'zbekiston Respublikasi hokimiyati tepasiga Shavkat Mirziyoyev kelgach, barcha sohalar kabi, davlatning tashqi siyosati va mamlakatlar bilan o'zaro hamkorlik aloqalarida ham sezilarli ijobiy siljishlar kuzatildiki, bu jahon hamjamiyatining e'tiborini tortmay qolmadi.

Ayniqsa AQSh davlati bilan hamkorlik aloqalarining chuqurlashuvi AQSh siyosatchi-kuzatuvchilarida alohida qiziqish uyg'otmay qolmadi. Amerikalik mutaxassis siyosatchilarning O'zbekistonda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga nisbatan berilgan ijobiy baholari fikrimizning isbotidir.

Jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlari davlat departamenti 2020-yil 7 dekabr kuni rasmiy bayonot berib, O'zbekistonning diniy erkinliklar sohasidagi "Maxsus kuzatuvdag'i davlatlar ro'yxati"dan chiqarilganligini e'lon qildi. Xalq so'zi gazetasining 2020 yil 263-sonli nashrida<sup>19</sup> "Dunyo" axborot agentligi muxbirini tomonidan amerikalik ekspertlarning ana shu qarorga bildirgan ijobiy fikrlarini chop etildi. Maqolani tahlil qilish asnosida amerikalik siyosatchi olimlar tomonidan O'zbekistonda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida amalga oshirilayotgan islohotlar samarasining yuksak e'tirofini ko'rish mumkin. Jumladan AQSh davlat departamentining ushbu qarorini "O'zbekistonda diniy erkinliklar sohasida erishilgan ulkan islohotlarning e'tirofidir"-deya ta'kidlaydi AQSh global jalb qilish instituti vise-prezidenti Jeyms Chen. Maqolada O'zbekistonda amalga

<sup>19</sup> Xalq so'zi 2020 yil 14 dekabr № 263.

oshirilayotgan o'zgarishlarga Amerika siyosatchi olimlarining befarq emasligi ularning o'z e'tiroflari asosida mahorat bilan ochib berilgan.

Shuningdek, O'zbekiston va AQShning "Xotin qizlar, tinchlik va xavfsizlik to'g'risida" qo'shma bayonoti imzolangan bo'lib, ushbu bayonotda Amerika Qo'shma Shtatlari uchun O'zbekiston xalqi bilan Xotin-qizlar, tinchlik va xavfsizlik masalalari bo'yicha harakatlar milliy rejasini ishlab chiqishda yaqin hamkorlik qilish katta sharaf ekanligini qayd etilgan.<sup>20</sup>

Bundan tashqari "Xalq so'zi" gazetasining 187-sonli nashrida<sup>21</sup> AQSh davlat Departamenti davlat kotibi Maykl Pompeoning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 29 yilligi munosabati bilan bayonoti e'lon qilinib, unda o'zbek xalqiga ezgu tilaklar bildirish bilan bir qatorda kotib tomonidan AQSh hamda O'zbekiton o'rtaсидаги hamkorlik pandemiya va boshqa global muammolarga qaramay chuqurlashganligi e'tirof etilgan.

Ma'lumki, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assamblyasining 75-sessiyasidagi nutqi xalqaro maydonda juda katta aks sado berdi. "Xalq so'zi" gazetasining 205-son nashrida<sup>22</sup> davlatimiz rahbarining ana shu nutqda ilgari surgan muhim tashabbuslari yuzasidan Amerikalik bir qator siyosatchi, ekspert, olim va mutaxassislarning bildirgan ijobjiy fikrlari "O'zbekistonni yorqin kelajak kutmoqda" rukni ostida chop etilgan bo'lib, maqolada mutaxassislar tomonidan davlatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar orqali O'zbekistonni butun xalqaro hamjamiyat, shu jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlari ham bajonidil qo'llab quvvatlaydigan yorqin kelajak kutayotganligi e'tirof etilgan.

Ikki mamlakat o'rtaсидаги ko'p tomonlama hamkorliklar oliy darajadagi rasmiy uchrashuvlar chog'ida yanada mustahkamlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan 2018-yil 15-17-may kunlari rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo'ldi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Amerika Qo'shma Shtatlariiga ilk rasmiy tashrifi va Vashingtonda bo'lib o'tgan ikki tomonlama muzokaralar ko'plab matbuot vakillari va xalqaro ekspertlarning e'tiborini tortdi. O'zbekistondan kelgan oliy martabali mehmon sharafiga o'tkazilgan rasmiy qabul chog'ida Amerikaning ko'plab gazeta va jurnallari sahifalari maqolalarga boy bo'ldi, OAVda O'zbekiston-AQSh munosabatlaridagi ushbu tarixiy voqeа haqida maxsus reportajlar tarqatildi. Masalan, "The Washington Post" gazetasi jurnalisti Rid Standi gazetasida shunday yozadi: "Respublikaning tashqi dunyoga ochilishi mamlakatni yangi yo'nalishga olib borish va Markaziy Osiyoni yanada liberal va barqarorroq qilish imkoniyatini beradi"<sup>23</sup>

<sup>20</sup> Xalq so'zi 2020 yil 4 noyabr № 232

<sup>21</sup> Xalq so'zi 2020 yil 3 sentabr № 187

<sup>22</sup> Xalq so'zi 2020 yil 29 sentabr № 205.

<sup>23</sup> Nuriddinov E. Становление и дальнейшее развитие на этапе обновления страны внешнеполитической деятельности Республики Узбекистан. Е., 2021

“Newsweek” tahliliy jurnali shunday ta’kidlaydi: “Shavkat Mirziyoyevning rasmiy tashrifi tarixiy xususiyatga ega. Biz savdo-iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirish, inson huquqlari masalalari bo‘yicha yaqindan hamkorlik qilish niyatidamiz. Respublikada amalga oshirilayotgan islohotlar bizda katta qiziqish uyg‘otmoqda”

AQSh axborot tarmoqlari orasida birinchi o‘rinni egallagan CNN telekanali voqealarni sharhlar ekan, O‘zbekiston-Amerika munosabatlarning ijobjiy dinamikasiga e’tibor qaratdi. Telekanal ta’kidlaganidek: “Prezident Tramp O‘zbekiston bilan hamkorlikning yangi davrini ochish niyatida. So‘nggi paytlarda mamlakat inson huquqlari sohasida sezilarli yutuqlarga erishdi”. Shu bilan birga, CNN jurnalisti AQSh prezidenti Donald Trampning so‘zlaridan iqtibos keltirdi: “O‘z mamlakatida ham, o‘zi uchun ham katta hurmatga sazovor bo‘lgan O‘zbekiston rahbari bilan uchrashish men uchun katta sharafdir.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, Amerika Qo‘shma Shtatlari O‘zbekistonda mamlakat Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida amalga oshirilayotgan muhim siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish borasidagi ulkan yutuqlarni e’tirof etmoqda va bu o‘z navbatida O‘zbekiston va AQSH o‘rtasidagi munosabatlarda yangi davr boshlanganidan dalolat beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. G.A.Hidoyatov “Основы дипломатии”- 2022.
2. N. Shomiy “Zafarnoma”.-1996
3. O‘zbek diplomatiyasi tarixidan.-2003
4. F.N.Ernazarov “O‘zbekistonning Osiyo davlatlari bilan madaniy aloqalari”.-dis,-2018.
5. D.B. Sayfullayev “Mustaqillik davrida O‘zbekiston diplomatiyasining shakllanishi va rivojlanishi”.-dis.-2017.
6. “Taraqqiyot va hamkorlik yo‘llarida. O‘zbekiston tashqi siyosati va diplomatiyasi”.-1993.
7. A. X. Parpiyev “O‘zbekiston diplomatiyasining tarixi va istiqbollari”. Maqola. 2021.
8. B. Shermuhammedov “Yangi O‘zbekiston-xalqaro diplomatiya markaziga aylanmoqda”. Maqola. 2022.
9. Nuriddinov E Становление и дальнейшее развитие на этапе обновления страны внешнеполитической деятельности Республики Узбекистан. Е., 2021
10. Nodirbek Jalilov, . (2022). INTRODUCTION AND LEGAL BASIS OF THE INSTITUTION OF INDIVIDUAL PREVENTION OF CRIMES. The American Journal of Political Science Law and Criminology, 4(06), 48–52. <https://doi.org/10.37547/tajpslc/Volume04Issue06-08>

11. Jalilov Nodirbek Komil O'G'Li (2023). YANGI O'ZBEKISTONNING SHAROITIDA ADLIYA VAZIRLIGI YURIDIK TEHNIKUMLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. Ta'lim fidoyilari, 04-02 (1), 136-141.
12. Jalilov Nodirbek Komil O'G'Li (2023). HUQUQBUZARLIK LARNING YAKKA TARTIBDAGI PROFILAKTIKASINING USUL VA SHAKLLARI. Ta'lim fidoyilari, 12-01 , 99-105.
13. <https://kun.uz/uz/news/2022/06/24/ozbekiston-aqsh-hamkorlik-va-sherikchilik-aloqalari-rivojlanyapti>.
14. <https://qalampir.uz/uz/news/ak-sh-2021-yilda-uzbekiston-bilan-yanada-yakin-hamkorlik-kilmokchi>-
15. 27. Авезова, Д. (2022). статья Стихи Есенина были его судьбой. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 22(22).
16. 28. Shaxnoza, A. (2022). PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF ADDRESS IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH RUSSIAN. Journal of Modern Educational Achievements, 3, 33-38.
17. 29. Артикова, Ш. М. (2023). Специфика Функционирования Плеоназмов В Русском И Английском Языках. Miasto Przyszłości, 33, 250-254.
18. 30. Artikova, S. (2022). PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF APPEAL IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH INTERNATIONAL LANGUAGES. Conferencea, 144-145.
19. 31. Artikova, S. (2022). PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF ADDRESS IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH DIFFERENCE INTERNATION LANGUAGES. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 3, 55-59.
20. 32. Artikova, S. M. (2020). About the importance of teaching foreign languages in the republic of Uzbekistan. ISJ Theoretical & Applied Science, 5(85), 79-83.
21. 33. Artikova, S. M. (2020). О НЕОБХОДИМОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. Theoretical & Applied Science, (5), 79-83.
22. 34. Artikova, S. (2022). PROSODIC FEATURES OF SPEECH FORMS OF APPEAL IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON WITH RUSSIAN. Conferencea, 142-143.
23. 35. Artikova, S. (2022). FEATURES OF SPEECH FORMS OF ADDRESS IN ENGLISH DISCOURSE IN COMPARISON. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 3, 60-63.
24. 36. Артикова, Ш. М., & Муминова, М. А. (2011). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ИЗУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗАХ. УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА, 55.
- 25.